

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND
THEIR SOLUTIONS
VOLUME 1, ISSUE 1, 2024**

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PSIXOLOGIK
MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH - TA'LIM SAMARADORLIGI OMILI**

Xurramova Orzigel

To'ychiyeva Sevinch

Umarova Mohigul

*Nizomiy nomli TDPU Maktabgacha ta'lism
pedagogikasi va psixologiyasi kafedra talabalari*

Annotatsiya: Makabgacha ta'lism tashkilotlarida mashg'ulot samaradorligini oshirish. MTTda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish. Pedagogik mahorat, ta'lism sifatini oshirish.

Аннотация: Повышение эффективности обучения в дошкольном образовании. Организация занятий по физическому воспитанию Педагогическая навыки, повышение качества образования.

Annotation: Improving the effectiveness of training in preschool education classes. Pedagogical skills, improving the quality of education.

Kalit so'zlat: Mashg'ulot samaradorligini oshirish, jismoniy daqiqalar, savodxonlik, bolalar adabiyoti, aktiv, passiv, ruhan yetuklik, jismoniy barkamollik.

Maktabgacha ta'lism tashkilotlarida amalga oshiriladigan islohotlar hozirgi kunda keng ko'lamli amalga oshirilmoqda. Qabul qilinayotgan qaror, qonun, farmon va farmoishlar o'z samaradorligini ko'rsatib kelmoqda. Sohani rivojlantirish uchun kadrlar bazasini mustahkamlash zarur, shundagina mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga erishish mumkin. Har bir mashg'ulotga jiddiy yondoshib, tashkiliy jarayonlarda yangi metodlardan foydalanilsagina ta'lism samarasini oshadi. Mokarenko aytganlaridek; "Kishi eng muhim tarbiyni umrining dastlabki 5 yilda oladi. Shunday ekan bolani tarbiyalashda 5 yoshgacha bo'lgan davrga ota-onalar, pedagoglarda katta e'tibor ta'lab etadi". Bu fikrdan yaqqol ko'rinish turibdiki bolani tarbiyalash jarayoni pedagoglar zimmasiga ulkan mas'uliyat, e'tiborni yuklaydi. Mashg'ulotlarni tashkil qilish jarayonida pedagog har bir mashg'ulotga o'zgacha yondashishi, yangiliklar va takrorlanmas mashg'ulot jarayonlarini tashkil etishi lozim.

Har bir mashg'ulot bola uchun yangilik, bilim berishi, o'zgacha tasavvur uyg'otishi asosiy maqsad bo'lishi lozim. Mahg'ulotlarni tashkil etishda har bir mavzudan, guruhdagi bolalarning dunyo qarashidan kelib chiqqan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Kunlik mashg'ulotlar albatta jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan boshlanadi va bolalarning energiyasini boshqarishi uchun yo'naltirilgan jarayondir. Jismoniy daqiqalar tashkil etishda kunlik normalarni soddadan murakkablikka qarab tashkil etish lozim. Jismoniy daqiqalarda qiziqarli she'rlar, o'yinlardan foydalanish bolada yanada qiziqish ortiradi. Haftalik mashg'ulotlarni tashkil etishda , albatta, dars jadvalini tashkil etish kerak. Jadvalda mashg'ulotlarni joylashtirishda hafta boshida va oxirida sodda, hafta o'rtasida esa murakkab mashg'ulotlarni joylashtirish ayni muddao sanaladi. Har bir mashg'ulot 3 qismdan iborat bo'lib;

1. Dastlabki o'rgatish, (kirish qismi)
2. Mukammal o'rgatish (asosiy qism)
3. Mustahkamlash va takomillashtirish (yakunlovchi qism)

Savodxonlik darslarini tashkil etishda noyabr oyida bolaga qalam ushlashni, o'rgatiladi. Dekabr oyida bolalarga harflar elementlari o'rgatiladi. Yanvar oyida bolalarga harflar o'rgatiladi mashg'ulotlar sekin astalik bilan murakkablashib boriladi. Bolalarga to'g'ri talaffuzni o'rgatish ularga turli hikoyalar o'qib berish, qayta hikoya qilish she'rlar, ertaklar, maqol va topishmoqlarni yodlab og'zaki aytib berish mashg'ulotlari olib boriladi. Savodxonlik mashg'ulotlari haftada bir marta yil davomida 36 marotaba o'tkazilishi ta'lاب etiladi. Mashg'ulotni tashkil etish jarayonida pedagog har bir bola bilan individual shug'ulanishi, har bir bolaga etibor qaratishi kerak. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarida imkon qadar jonli tabiatni tashkil eta

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND
THEIR SOLUTIONS
VOLUME 1, ISSUE 1, 2024**

olish talab etiladi. Bunda tabiat maketlarini yasash turli hayvonlar ovozidan foydalanish bolada yana qiziqish uyg'otadi. Mashg'ulot yakunida syujetli-rolli o'yinlar tashkil qilish olgan bilimni mustahkamladi.

Mashg'ulot olib borish jarayonida pedagoglar yo'l qo'yadigan xato bu bolalarning e'tibordan qolib ketishi, passiv bo'lgan bolalarga ko'proq e'tibor qaratilib, rag'batlantirilib borilishi bolalarning mashg'ulotga qiziqishini ortiradi. Fransiya mактабгача ta'lim tashkilotlarida aktiv bo'lgan bolalar bilan shug'ullanish jarayoni alohida o'tkazilib, ularning qiziqishi, qobiliyatları yuzaga chiqishi ustida individual mashg'ulotlar o'kaziladi. Passiv faoliyatdagi bolalar bilan maxsus mutaxasislar shug'ulanadilar.

Hozirgi vaqtda bolalarni biror mashg'ulotga jalb etish ancha qiyin. Nazarimda bolani mashg'ulotga qiziqishini oshirish uchun do'stona mashg'ulotlarni tashkil etish, bolalarcha o'ylash bizga ko'proq yordam beradi. Ammo, barchasi me'yorida bo'lishi lozim. Ya'ni, kezi kelganda bola jazolanishi, rag'batlantirilishi, mas'uliyatli vazifalar yuklash kerak. Bolada kichikligidan "MEN" tushunchasini shakllanishi pedagogga bog'liq. Bola kun davomida makytabgacha ta'lim tashkilotida bo'ladi, har bir jarayonda erkinlikni, fikr teranligini shakllantirish pedagogdan mahirat talab etadi. Har bir mashg'ulot so'ngida bolalardan fikrlarini, xulosalarini so'rash, fikr ijobjiy yoki salbiy bo'lishidan qatiy nazar bo'lmasdan eshitish bolada qo'rqish hissini kamaytiradi.

Mahg'ulotlarni tashkil etishda davlat dasturlariga suyanib qolish bu eng katta xato.. Mashg'ulot jarayonlarini tashkil etishda erkin va yangiliklarga boy tarzda olib borish lozim deb sanayman. Masalan; mashg'ulot matematik tasavvurlarni shakllantirish bo'lsa faqatgina berilgan reja bilan ish olib bormay turli o'yinlar, topishmoqlar, musiqali tanaffuslar, harflar ishtirokida syujetli-rolli o'yinlar bilan birgalikda tashkil qilish ko'proq samarali sanaladi. Berilgan faoliyatda ishtirok etgan bola albatta ma'lumotlarni eslab qoladi.

Har bir bola kelajagimiz egasi sanaladi. Shunday ekan bolalarga niholdek qarab, ta'lim, tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish biz pedagoglardan talab etiladi. Har kimning keljakda qanday inson bo'lishi yoshlikda berilgan ta'lim, tarbiyaga bog'liq. Ota-bobolarimiz aytganlaridek; "Yoshlikda olingen bilim, toshga o'yilgan naqsh kabidir" Avvalo , pedagog mashg'ulotlarning asosiy vazifasi to'g'risida mukammal bilimga ega bo'lishi lozim. **Mashg'ulotlarning muhim vazifalari;**

- Bolani ruhiy, jismoniy, ma'naviy jihatdan tarbiyalash. Yordamga muhtoj bo'lgan bolalar bilan inklyuzif ta'lim sifatini oshirish.
- Mashg'ulotlar jarayonida bolalarning sifatlarini (chidamlilik, irodaviylik, va h.k) shakllantish.
- Bolalarga atrofdagi go'zalliklardan bahra olish, quvonish, yaxshilik, go'zallik tushunchalarini shakllantirish.
- Bolalarga yangi bilimlarni o'rgatishda har bir mashg'ulotda yangi bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirish. Har bir mashg'ulotda asta sekinlik bilan murakkablashtirib borish.
- O'rganish jarayonida aqliy, jismoniy, ma'naviy jihatlarga e'tibor qaratish.

Mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagog o'zi uchun qatiy qoidalar joriy etishi kerak ya'ni albatta har bir mashg'ulotni samarali tashkil etish, sifatlilik darajasini eng yuksak darajasiga chiqarish kerak. Ta'lim jarayoniga yuzaki qarash emas balki har bir daqiqasigacha reja qilib, amal qilishi ta'lim samaradorligini oshirishga asos bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, mashg'ulotlarni tashkil qilioshda pedagogdan ulkan mahorat va mas'uliyat talab etadi. Har bir ishni amalda bajarsakgina, amalda yuzaga chiqarsakgina keljakda yetuk cho'qqilarga ko'tarila olamiz. Biz yosh avlodni qanchalik e'tibor bilan tarbiya qilsak bolalarda o'ziga bo'lgan ishonch ortadi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati;

INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND THEIR SOLUTIONS

VOLUME 1, ISSUE 1, 2024

- Махмудова, Д. М. (2022). МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШ МЕТОДЛАРИ. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(6), 274-278.
- Кадирова, Ф. Р., & Махмудова, Д. М. (2022). Мактабгача катта ёшдаги болаларни китобхонликка тайёрлаш методикасини такомиллаштириш. *PEDAGOGS jurnalı*, 1(1), 10-16.
- Makhmudova, D. M. (2023). EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 4(1), 177-180.
- Махмудова, Д. М. (2022, November). СПОСОБЫ ЗАИНТЕРЕСОВАТЬ ДОШКОЛЬНИКОВ ЧТЕНИЕМ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 3, pp. 96-101).
- Maxmudova, D., & Raxmanova, X. (2022). РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. *Science and innovation*, 1(B7), 1213-1217.
- Makhmudova, D. M., & Sultanova, Z. (2023, September). METHODS USED IN THE MORNING RECEPTION OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE "SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES"* (Vol. 1, No. 4, pp. 8-12).
- Makhmudova, D. M. (2023, September). ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF MODERN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE "SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES"* (Vol. 1, No. 3, pp. 53-57).
- Mahmudova, D. (2023). PROBLEMS OF ARCHAEOLOGICAL TOURISM DEVELOPMENT IN NAMANGAN REGION. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 8, 61-63.
- Makhmudova, D. M. (2021). Technology of creating electronic book of fairy tales in preschool organizations. *Экономика и социум*, (1-1 (80)), 157-159.
- Maxmudova, D. (2022). FORMATION OF BUSINESS ENVIRONMENT AND DIGITAL ECONOMY BASED ON DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS INFRASTRUCTURE. *Science and Innovation*, 1(8), 312-318.
- Maxmudova, D. M. (2023, January). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KITOBOXONLIKKA TAYYORLASHDA INNAVATSIYON KITOBLARNING AXAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 629-632).
- Махмудова, Д. М., & Омонова, Д. (2023, October). СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ДОУ И СЕМЬИ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE "INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION"* (Vol. 2, No. 8, pp. 62-67).
- Maxmudova, D. (2022). FOREIGN EXPERIENCE IN REGULATING AND SUPPORTING SMALL BUSINESS BY THE STATE. *Science and Innovation*, 1(7), 482-488.
- Makhmudova, D. M. (2022). AWAKENING CHILDREN'S PRESCHOOL AGE LOVE OF READING
- Maxmudova, D. (2022). CHALLENGES AND PROSPECTS OF SMALL BUSINESS MANAGEMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY. *Science and Innovation*, 1(7), 451-461.
- Makhmudova, D. M. (2022, February). ON THE PROBLEMS OF INTEGRATING DIGITAL TECHNOLOGIES INTO THE EDUCATIONAL PROCESS. In *Conference Zone* (pp. 225-226).